



ANDIJON SHAROITIDA BOSHLI VA BARGLI SALATNING QISH OLDIDAN EKISH VA ULARNI MORFO-BIOLOGIK BAXOLASH

Z.T.Bo'stanov¹, S.A.Saliyev², X.N.Berdaliyev³

¹O'rmon xo'jaligi ilmiy tekshirish instituti Andijon filiali direktori,
²O'rmon xo'jalik ilmiy tekshirish instituti Andijon filiali ilmiy xodimi,
³O'rmon xo'jalik ilmiy tekshirish instituti Andijon filiali ilmiy xodimi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5528397>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-sentabr 2021
Ma'qullandi: 20-sentabr 2021
Chop etildi: 25-sentabr 2021

KALIT SO'ZLAR

Winter Lake, Ramses,
Bottner, Ostinata,
Lepperman, Great Lakes,
Grand Rapids

ANNOTATSIYA

Complex appreciation to the plant of salad during three years (2015-2018 y.) in conditions of Uzbekistan (In the European countries 42 sorts are grown and 12 selection lines are grown in Uzbekistan) is given according to specific characters of cold endurance early maturing yield capacity , growing pains endurance.

According to the results of experiences of indicational complex the best examples are considered : Ramses , Bottner , Great Lakes. There examples can serve as the infant materials for selectional works of salads and winter crops in conditions of Uzbekistan.

O'zbekistonning yaxshi iqlim sharoitlarida su'niy sug'orish yo'li bilan turli xil sabzavot ekinlari o'stiriladi va yuqori hosil olinadi. Ko'pgina sabzavot ekinlari qatorida salat o'simligini ham ahamiyati katta, lekin respublikamizda sabzavot ekinlari qatorida salat o'simligiga bo'lgan e'tibor orqada qolmoqda. Shuni inobatga olgan holda sabzavot ekinlarining kasalliklarga chidamli, mo'l hosil beradigan, oziqlik va texnologik sifatlari qimmatli bo'lgan va shu bilan birga tashqi muhitning noqulay sharoitlariga ekologik jixatdan moslasha oladigan navlarini yetishtirish va joriy etish juda muhimdir.

Juda ko'p mamlakatlarda Yevropada, Amerikada va Osiyoda doimiy ravishda boshqa sabzavotlar singari salat o'simligi

ham iste'mol qilinadi . Salat o'simligi parhez taom bo'lib, sovuqqa chidamli, tezpishar, kam xarajat, boshqa sabzavotlar xali iste'molga chiqmasdan turib, 2-3 marta yangi ko'k massa hoida hosil beradi, yuqori sifatli va kam chiqimliliigi bilan ko'p mamlakatlarda ishlab chiqarishda tadbiiq etilgan .

Asosiy kamchiligi o'zimizning maxalliy navimiz yo'qligi, xalqimiz bu o'simlikni iste'mol qilishga odatlanmaganligi, kam tarqalganligi, targ'ibot qilinmaganligi sababli salat o'simligi keng yoyilmagan. O'zbekiston sharoitida, ochiq maydonlarda arzon va ertaki ko'kat ekinlari yetishtirish mumkin . Tarkibida biologik aktiv moddalar va vitaminlar ko'p bo'lishligi bilan,



issiqxonalarda yetishtirilganlarga nisbatan afzalroq bo'ladi. Buning uchun albatta sovuqqa chidamli navlar tanlash hamda ularni yetishtirish texnologiyasini bilish kerak.

Farg'ona vodiysi sharoitlarida ochiq dalada yuqori hosil olish va salat navlarining seleksiyasi uchun boshlang'ich manbalarni ajratish maqsadida O'zO'ITIdan olingan 12 ta mamlakatning 42 ta kolleksiya nav na'munalari o'rganildi. Ularning urug'lari 30 noyabrda ochiq dalaga 1,5-2,0 sm. chuqurlikda ekildi va ustini chirindi qorishmasi hamda yog'och qirindilari bilan aralashtirilib qoplama qilib sepildi. Tajriba uch xil variantlarda 4 ta qaytariqda, qator oralari 70 sm, o'simliklar orasi 15x15x15 sxemada, pushtalarda ikki qator qilib joylashtirildi. Qishdan keyin fevral oyida o'simliklar birinchi ching barg chiqargandan so'ng birinchi yagona qilindi. Kuzatuvlar tajriba dalalarida salat kolleksiyasini o'rganish VIR uslublari bo'yicha o'tkazildi.

Bizning tajribalarimiz shuni ko'rsatdiki, uch yillik ilmiy tajribadan so'ng sovuqqa chidamliligi bo'yicha 7 ta nav K-1425 Winter Lake Avstraliyadan, K-1216 Ramses Germaniyadan, K-1158 Bottner , K-1647 Ostinata Gollandiyadan, K-1237

Lepperman , K-1322 Great Lakes Kanadadan va K-405 Grand Rapids AQShdan namunalar ajratildi.

Shunday qilib, Farg'ona vodiysi sharoitida kolleksiya nav na'munalari o'rganilgan va qimmatli belgilari bo'yicha istiqbolli nav na'munalari ajratib olindi: sovuqqa chidamli (4,5 ball) Ramses va Bottner nav na'munalari,; tezpisharligi (urug' ungandan yetilgunga qadar 30-38 kun) Ramses, Bottner, Ostinata nav na'munalari . Salat boshini uzoqroq saqlanish davri buyicha (14-17 kun) Grand Rapids, Ostinata, Great Lakes nav na'munalari ; yirik va zich salat boshlar buyicha (242,0-250,0 g) Grand Rapids, Great Lakes va Ramses nav na'munalari; sariq zamburug'li kasalligiga chidamli – Lepperman nav na'munasi va yuqori hosildorlik bo'yicha (2,34-2,90 kg/ m²) - Winter Lake, Ramses , Ostinata, Great Lakes va Grand Rapids nav na'munalari. O'rganilgan kompleks belgilar bo'yicha eng yaxshi na'munalar deb: Ramses, Bottner va Great Lakes hisoblandi. Ushbu na'munalar O'zbekiston sharoitida qish oldidan ekish uchun salat navlarini seleksiya ishlari uchun boshlang'ich material bo'lib xizmat qila olishi mumk

Jadval

Farg'ona vodiysi sharoitida chetdan keltirilgan salat o'simligining qish oldidan ekish va ularni xo'jalik-biologik baxolash

Nav na'munalari	№ Guruhlar	Kelib chiqishi	Qishga chidamliligi ball	Unib chiqqandan iste'mol qilguncha kun	Salat bosh og'irligi, g	Salat bosh zichligi ball	Laktusin moddasi ball	Sariq chirish kasalligi bilan zararlanish ball	Hosildorlik kg/m ²
-----------------	------------	----------------	--------------------------	--	-------------------------	--------------------------	-----------------------	--	-------------------------------



Katta karam	st.	Rossiya	3,0	40	205,0	3,0	3,0	0,5	1,87
WinterLake	K-1425	Avstral iya	4,0	46	215,0	4,0	3,5	1,0	2,34
Ramses	K-1216	Germa niya	4,5	30	243,0	4,0	2,0	0,5	2,74
Bottner	K-1158	Germa niya	4,5	32	230,0	4,0	2,0	1,0	2,68
Ostinata	K-1647	Golland iya	4,0	38	230,0	4,5	2,0	1,0	2,42
Lepperman	K-1237	Daniya	3,0	40	100,0	3,0	1,5	0,0	1,15
GreatLakes	K-1322	Kanada	4,0	42	250,0	4,5	3,0	2,5	2,90
GrandRapid s	K-405	AQSH	4,0	44	242,0	4,0	2,0	2,0	2,82

O'simlikni unib chiqishi ob-havoga, iqlimga bog'liq, salat o'simligi ob-havo yaxshi kelgan yillari yanvar oyining oxiri, fevral oyining boshlarida unib chiqadi. Salatni yosh nihollarini qisqa muddatli 6-8 C li sovuqdan mulcha himoya qiladi, erta bahorda o'simlik nihollarini bir vaqtda unib chiqishiga mulcha yordam beradi.

O'simlikda 2-3 ta haqiqiy barg paydo bo'lgandan o'simliklar 1-chi marta oziqlantiriladi, o'sish va rivojlanish davrida 2-chi marta oziqlantiriladi. Qator oralariga 1-2 marta ishlov beriladi ya'ni chopiq qilinadi. Ikki marotaba yagona qilinadi birinchi marotaba o'simlik ikkita chinbarg chiqarganda 5-7 sm ga, ikkinchi marotaba oradan 2 hafta o'tkazib 10-12 sm ga qilib o'simlik qoldiriladi. Ekilgan maydonlarimiz tuproqlarida yetarli organik o'g'itlar

bo'lganda va ob-havo bahorda quruq kelganda 7-8 kunda bir marotaba sug'orish tavsiya etiladi.

Salat o'simligini unib chiqqandan so'ng 30-35 kun o'tgach istemol qilinadi. Bu aprel oyining ikkinchi va oxirgi dekadalariga to'g'ri keladi. Shu vaqtda hali hech qaysi sabzavotlar ochiq maydonlarda istemolga yaroqli bo'lmaydi. Shuning uchun ham aholini servitamin sabzavot mahsulotlari bilan ta'minlash juda katta ahamiyatga ega. Navbatma-navbat barglari terilib ishlatiladi. Qish oldidan ekilgan ko'kat ekinlarni to'laligicha hosilini aprel oyining oxirlarida yig'ishtirib olish mumkin. Salat o'simligidan gektaridan 8-10 tonnagacha ko'k massa hosil olish mumkin. O'simliklar may oyida yig'ishtirilmasdan qoldirilsa o'simlik gul poya chiqaradi



hamda urug' hosil qiladi 1-2 sentner urug' hosil beradi.

Tajribalarimiz asosida qimmatli belgilar bo'yicha istiqbolli salatning nav na'munalari ajratib olingan: sovuqqa chidamligi bo'yicha - Ramses va Bottner nav na'munalari, tezpusharligi buyicha- Ramses, Bottner, Ostinata nav na'munalari. Salat boshini uzoqroq saqlanish muddati bo'yicha - Grand Rapids, Ostinata, Great Lakes nav na'munalari; yirik va zich salat

boshlar bo'yicha - Grand Rapids, Great Lakes va Ramses nav na'munalari; sariq zamburug'li kasalligiga chidamligi bo'yicha - Lepperman nav na'munasi hamda yuqori hosildorlik bo'yicha - Ramses, Great Lakes va Grand Rapids nav na'munalari.

Shunday qilib, Farg'ona vodiysi uchun salat o'simligini qish oldidan eng yaxshi va qulay ekish muddati noyabrning ohiri deb aniqlandi.

References:

1. T.E.Ostonaqulov.Sabzavotlar yetishtirish texnologiyasi. "Sharq".Toshkent-2003. 316-334 betlar.
2. V.I.Zuyev, O.Qodirxo'jayev, M.M.Adilov, U.I.Akramov.Sabzavotchilik va polizchilik. "Iqtisod-moliya".Toshkent-2017. 151-164 betlar.
3. D.Y.Yormatova, M.Y.Ibrohimov, D.S.Yormatova. Meva-sabzavotchilik. "Talqin". Tashkent-2004. 27-34 betlar.
4. R. Hakimov. M.Aramov "Aysberg" navli bosh salat yetishtirish bo'yicha tavsiyalar. Maqola.Toshkent-2021. 1-3 betlar.
5. Г.И.Тараканова, В.Д.Мухина. Овощеводство. "КолосС". Москва-2003.
6. Ю.И.Сологуб.Особенности выращивания салат «Айсберг»
7. Каримов А.К. Подзимний сев овощных культур.//Тр. УзНИИОБКиК. Вып. 4. Ташкент.- 1965. 23-37 с.
8. Meejias J.A. Self-fertility and associated flower head traitsin the Iberion taxa of Lactuca and related genera (Asteraceae)//-Plant Systematics and Evolution.- 1994.-191.3-4.-147-160p.
9. Муханова Ю.И, Комаровой Р.А. Методические указания по селекции зеленых, пряно-вкусовых и многолетних овощных культур // Бюл. ВАСХНИЛ –Вып. Москва – 1987 . 3-10.-15-20.с.